

## Siqilgan gaz sotish shartnomasi 7-sonli

Qibray tumani

2022 yil "19" yanvar

Bizlar, ushbu siqilgan gaz sotish shartnomasini imzolovchilar "DO'RMON BIZNES SAVDO" MCHJ rahbar Shaymardanov R.B. (bundan buyon matnda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi) va ikkinchi tomondan Qibray tumani Moliya bo'limi mudiri I.E.Xolmurodov (bundan buyon "Sotib olvchi" deb yuritiladi) orasida O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeks, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun va boshqa qonun hujjatlari, taraflarning ustavlari asosida ushbu shartnomani qo'yidagilar haqida tuzdik.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 "Yetgazib beruvchi" qo'yidagi mahsulotni sotish, "Sotib olvchi" oldindan 100% to'lash sharti bilan sotib olish majburiyatlarini oladilar.

№ t/r	Tovar nomi	O'Ichov birligi	Jami yil uchun	Jumladan kvartal buyicha			
				I	II	III	IV
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Siqilgan tabiiy gaz (Metan)	Kub.metr	648	648			

1.2. Siqilgan gaz (Metan)ni "Sotib olvchi"ning avtotransport vositasiga yetkazib berish Qibray tumani, Yuqori-yuz ko'chasida joylashgan avtomabillarga siqilgan gaz to'ldirish stansiyasi (АГНКС) orqali amalga oshiriladi.

1.3. Siqilgan gaz (Metan) avtomobilga quyilgan sana ushbu shartnoma bo'yicha tovar yetkazib berilgan sana hisoblanadi.

### 2. TO'LOV SHARTLARI

2.1. Shartnoma tuzilgan kundagi narx 1 kub.mert siqilgan gaz (Metan) uchun 3000 so'mni QQS bilan tashkil qiladi. Umumiylar shartnoma summasi 1944000 (Bir million to'qqiz yuz qirq to'rt ming) so'm. Soliq, xom ashyo, materiallar, elektr resurslari, qonunchilikka ko'ra tabiiy gaz narhidagi o'zgarishlar siqilgan gazni sotish narhiga o'zgarish kiritishga olib keladi.

2.2. Hisob-kitob siqilgan gaz (Metan) avtomobilga quyilgan sanadagi narhi boyicha amalga oshiriladi.

2.3. "Sotib olvchi" tomonidan bir oy uchun buyurtma so'mmasi oldindan 100% to'laganidan keyin "yetkazib beruvchi" tomonidan siqilgan gaz yetgazib beriladi.

### 3. TARAFLARNING HUQUQLARI, SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BAJARMAGANLIGI YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIGI UCHUN JAVOBGARCHILIGI

#### 3.3. "Yerkazib beruvchi"

-avtomobil haydovchisida guvohnoma, yo'llanma, gaz ballonnini o'rnatish va sinovdan o'tkazish dalolatnomalari mavjudligini tekshiradi;

-avtomobil haydovchisi АГНКСda belgilangan joyda yo'lovchilarini tushirib, faqat o'zi avtomobilda qolonka tomonga texnika xavfsizligini saqlagan, navbatni, boshqa qoidalarni buzmagan holda kirishini nazorat qiladi;

-oldindan to'liq to'lov (hisob-kitob) amalga oshirilgan taqdirda, asossiz siqilgan gaz yetgazib berishni to'xtatsa, xar bir holatda olinmay qolgan gaz narhining 10% miqdorida jarima to'laydi.

#### 3.2. "Sotib olvchi":

-siqilgan gaz olish huquqiga egaligi haqidagi barcha zarur hujjatlarni taqdim qilishi lozim;

-avtomobilning texnik holatiga javobgar bo'ladi;

-agar, oldindan to'lovdan qarzdorligi mavjud bo'lib, gaz olgan taqdirda, har bir kunga muddati o'tgan qarzning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi;